

2018 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sector, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 18,1 mingdan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 11,7 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.


2019 yil 1 yanvar holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6439,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (33,4 %), transport xizmatlari (26,3 %), moliyaviy xizmatlar (10,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (5,7 %) ustunlikka ega.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 1012,3 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-noyabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 627,0 mlrd. so'mga ko'paydi.

2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (199,1 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (167,7 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (76,8 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (34,3 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2017 yilning mos davrida savdo xizmatlari - 379,6 mlrd. so'm, transport xizmatlari 119,6 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar - 192,2 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 45,3 mlrd. so'm ga oshgan.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	6439,8	107,7
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	364,4	113,5
moliyaviy xizmatlar	658,1	127,3
transport xizmatlari	1694,6	103,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1575,8	102,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	283,2	106,2
savdo xizmatlari	2149,9	103,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	178,1	105,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	284,5	129,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	121,5	99,2
ijara xizmatlari	176,4	104,2
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	152,7	106,0
shaxsiy xizmatlar	140,9	101,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	65,1	125,3
boshqa xizmatlar	170,4	108,3

Eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (129,8 %), moliyaviy xizmatlar (127,3 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (125,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,5 %), boshqa xizmatlar (108,3 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (99,2 %), shaxsiy xizmatlar (101,8 %) va transport xizmatlari (103,5 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 33,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (26,3 %), moliyaviy xizmatlar (10,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,7 %) egallaydi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



O'zbekiston Respublikasi transportining samarali ishlashi modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda alohida o'rin tutadi.

Eng yuqori ulush Buxoro sh. (64,3 %), G'ijduvon (8,5 %), Kogon sh. (4,0 %), Qorovulbozor (3,7 %), Romitan (3,3 %), Buxoro (3,0 %) va Vobkent (2,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil xizmatlarining umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %




Kogon tumanida avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulushi qayd etildi va 1,1 % ni tashkil etdi.

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 60,0 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 40,0 % ni tashkil etdi.

Tashish turlari bo'yicha ko'rsatilgan avtomobil bozor xizmatlarining tarkibi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2149,9 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 33,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 379,6 mlrd.so'mga oshdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahri (633,6 mlrd. so'm), G'ijduvon (430,2 mlrd. so'm), Buxoro (134,6 mlrd. so'm) tumanlari, Kogon shahri (127,6 mlrd. so'm), Vobkent (118,1 mlrd. so'm), Romitan (114,8 mlrd. so'm) va Qorako'l (100,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm



Savdo xizmatlarining eng past ko'rsatkichi Qorovulbozor tumanida kuzatilmoqda. Ushbu tumanda, savdo xizmatlari hajmi 45,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 80,6 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 13,3 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,1 % ni egallaydi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 658,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 127,3 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi, %



Ma'lumot uchun: 2018 yil yanvar-dekabrda moliyaviy xizmatlar 465,9 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 192,2 mlrd. so'mga oshdi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 284,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 29,8 % tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati




Shofirkon	106,7 %
Olot	112,2 %
Peshko'	112,8 %
Romitan	114,9 %
G'ijduvon	118,5 %
Kogon	121,8 %
Buxoro	123,2 %
Jondor	124,1 %
Vobkent	124,4 %
Qorovulbozor	125,0 %
Qorako'l	127,3 %
Buxoro sh.	132,8 %
Kogon sh.	180,1 %



Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 283,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 106,2 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 4,4 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 87,2 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 12,8 % ga to'g'ri keladi.

2017 yil yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslatganda yashash bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri respublikada turizm faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur tarixiy yodgorliklar, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiati, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash bo'yicha xizmatlarning ulushi 0,2 f.p.ga oshgan.


**2018 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	6439,8	107,7
Buxoro sh.	3738,7	108,8
Kogon sh.	234,3	100,4
tumanlar:		
Olot	163,7	105,3
Buxoro	239,0	106,5
Vobkent	215,2	105,9
G'ijduvon	692,1	107,8
Kogon	127,8	105,0
Qorako'l	195,3	105,8
Qorovulbozor	126,0	107,9
Peshko'	154,7	108,7
Romitan	214,3	105,9
Jondor	174,9	106,5
Shofirkon	163,8	105,7

Shahar va tumanlar o'rtasida Buxoro shahri (3738,7 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Buxoro shahri bo'yicha 108,8 % ni tashkil etdi.

Eng kichik hajm Qorovulbozor (126,0 mlrd. so'm), Kogon (127,8 mlrd. so'm) va Peshko' (154,7 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatildi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Kogon shahri (100,4 %), Kogon (105,0 %), Olot (105,3 %) va Shofirkon (105,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %




Shahar va tumanlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Buxoro shahri (58,1 %), G'ijduvon (10,8 %), Buxoro (3,7 %) tumanlari, Kogon shahri (3,6 %) va Romitan (3,3 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kam ulush Qorovulbozor va Kogon (2,0 %), Peshko' (2,4 %) va Olot (2,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning maksimal o'sishi Buxoro shahrida (108,4 %), Peshko' (106,7 %), G'ijduvon (106,2 %) va Qorovulbozor (106,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Kogon shahrida uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari - 99,7 % qayd etildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

65-223-79-41

71-230-83-12